

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 8



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 414 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUpfessori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Cham Tat Huei, ( PhD ) USCI universiteti professori**, Malayziya

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Ali Konak (Али Күнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

- Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,  
**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society  
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc**, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation  
**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute  
**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE  
**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute  
**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction  
**Judy Smetana CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Chrissy Lewis CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Ali Konak DSc**, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey  
**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu .....	24
C.C. Ismailov	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
Idrisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari .....	53
Sultanov Maximud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitora Sunnat kizi	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki .....	61
Bohidova Mehri Xasanovna	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran .....	69
Buranova Lola Vahobovna	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij .....	116
Umida Yoldasheva	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax .....	120
Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari .....	138
Sharipov Narzullo G'ułomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri .....	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliyohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari .....	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish .....	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Kasimova Zilola Gulamiddinovna	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish .....	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане .....	186
Shahzod Saidullaev	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish .....	192
Ahmedov Komron Muhammadiyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari .....	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati .....	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства .....	214
Nurutdinova Zuxra Alisherovna	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati .....	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari .....	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Motabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekisonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar .....	247
Boykbilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv.....	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari.....	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari .....	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth .....	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish .....	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов .....	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budgetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili .....	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий.....	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida OsiyoCHA ishlab chiqarish usuliga asos solinishi.....	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalarasi ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari.....	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati .....	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
"Istiqlol" memhonxonasi reklama faoliyati tahlili .....	322
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar.....	328
Xaydarov Kurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches.....	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов .....	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамалович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlanirish masalalari.....	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Zarubежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы .....	347
Саримсакова Малоҳат Ҳикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari.....	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish .....	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamlı transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish .....	364
<b>Ortiqov Xamroql Abdumajidovich</b>	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili .....	369
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
<b>Ortiqov Oybek Abdullayevich</b>	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
<b>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</b>	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi .....	394
<b>Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich</b>	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
<b>Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich</b>	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish .....	403
<b>Abdusaidov S.J.</b>	
Vençur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar.....	409
<b>Do'stov Firuz Ilxomovich</b>	



# VENCHUR KAPITALI: KELIB CHIQISH TARIXI VA ILG'OR HORIJIY TAJRIBALAR



**Do'stov Firuz Ilhomovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada vechur kapital va vechurli moliyalashtirish bo'yicha boshlang'ich tushunchalarini kelib chiqishi, ularning dastlab Amerika mamlakatida rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlar tadqiq etildi hamda vechur kapitali bo'yicha taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalari va ushbu tajribalarni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari to'g'risida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** vechur kapital, vechur moliyalashtirish, innovatsiya, startaplar, risk.

**Abstract:** In this article, the history of the origin of the concepts of venture capital and venture financing, their initial development in America, and the experience of developed countries in terms of venture capital were studied, and proposals were made about the prospects of applying these experiences in Uzbekistan recommendations were developed.

**Key words:** venture capital, venture financing, project, innovation, startups, risk.

**Аннотация:** В данной статье изучена история зарождения концепций венчурного капитала и венчурного финансирования, их первоначальное развитие в Америке, а также опыт развитых стран в сфере венчурного капитала, а также разработаны предложения и рекомендации о перспективах применения этого опыта в Узбекистане.

**Ключевые слова:** венчурный капитал, венчурное финансирование, проект, инновации, стартапы, риски.

## KIRISH

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatlarni rivojlantirishga kapital oqimini ta'minlashga qodir innovatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri vechur investitsiyalari hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar vechur kapitalidan innovatsiyalarni moliyalashtirish vositasi sifatida foydalanim samarali natijalarga va yutuqlarga erishgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston kapital bozorining faol rivojlanish bosqichida turmoqda. Lekin shunga qaramay mamalakatimizda vechur moliyalashtirish sohasi haligacha taraqqiy etmayapti. So'nggi 6 yil ichida O'zbekistonga 10 ga yaqin vechur fondlari bozor mehanizmining moliyalashtirish instrumenti sifatida davlat iqtisodiyoti tarkibiga kiritilgan va ularning atigi 2 donasi milliy vechur fondini o'z ichiga oladi. Ma'lumot o'rnila shuni aytishimiz mumkinki, 2023-yilda Vechur bozorida mutlaq etakchi Qozog'iston bo'lди, mamlakatda investitsiyalar hajmi 80 mln AQSH dollaridan oshdi. Gruziya 21,6 mln AQSH dollari bilan ikkinchi, O'zbekiston esa 6 mln AQSH dollari bilan uchinchi o'rinni egalladi.<sup>1</sup> Qo'shni Qozog'iston davlati mamalakatimizga qaraganda 13 barobardan ko'proq vechur kapitaliga ega bo'lgan. Vechur kapital qo'yilmalari kapital bozorining juda muhim qismi bo'lib, bu bizga yuqori riskli lekin shu bilan birga yuqori daromad olib kelishu mumkin bo'lgan boshlang'ich loyihalarni moliyalashtirishga imkon beradi. Aynan shunday loyihalar iqtisodiyotni oldinga siljitudigan samarali va innovatsion korxonalarining o'sishiga sharoit yaratadi. Vechurli moliyalashtirish jamiyat hamda mamalakat uchun foydali yangi loyihalarni topish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Shu asnoda, "Nima uchun O'zbekistonda vechurli moliyalashtirish yaxshi rivojlanmayapti?" degan savol paydo bo'ladi. Ushbu savolga javob tariqasida, ba'zi sabablarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- O'zbekistondagi vechur kapital ekotizimi hali ham yangi bosqichda, kuchli huquqiy va me'yoriy asoslarga ehtiyoj bor;

- Vechurli murakkab qoidalar va uzoq ma'muriy protseduralar kabi vechur – biznesini boshlash va boshqarish bilan bog'liq to'siqlar;

1 <https://www.spot.uz/oz/2024/03/23/rise-ventures/>



– farishta investorlari tarmoqlarining kamligi, biznes murabbiylari va inkubatorlarning hamda bilim va tajriba etishmaslik kabilalar.

Ushbu maqolaning maqsadi ham venchurli moliyalashtirish asosida ko'plab muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirilish mumkinligini yoritib berish va kapital bozorida venchurli moliyalashtirishning holatini tadqiq etish hamda uni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib maqolada venchurli moliyalashtirishning xorij tajribalarini va O'zbekistonda moliyalashtirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish kabi qator vazifalar belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Venchur kapital va venchurli moliyalashtirish asosida loyihalarni amalga oshirish va ularni moliyalashtirish bo'yicha bir qator xorijlik olimlar tadqiqotlar olib borgan. Xususan, 20-asrning mashhur iqtisodchilar bo'lgan Dj.M.Keyns va Dj.R.Xiks ning ishlarida venchur kapitaliga aniq bir yondashuv, uning foyda olish uchun tadbirkorlik faoliyatida qo'llaniladigan venchur kapitalining pul shaklidagi qiymati ifodasining o'sishini ko'rsatuvchi ta'rif o'z ifodasini topgan.

Y.V. Vranovich va O.Y. Michurinalar esa tadqiqot ishida venchur kapitalini iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning instrumenti sifatida qarashgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar uchun venchurli moliyalashtirish sohasi nisbatan yangi bo'lib, uni bir necha maqolalar shaklida va ba'zi olimlarimizning yozgan adabiyotlarida ko'rish mumkin, shunday tadqiqotlardan S. R. Chulliyev ning "Venchur kapitali iqtisodiyotni innovasion rivojlantirish omili sifatida" mavzusidagi maqolasida venchur kapitalining afzalligi, funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan tadqiq qilingan va uning iqtisodiyotda innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi roli o'rganilgan.<sup>2</sup>

D.G'. G'ozibekov o'z tadqiqot ishida venchur kapitalni katta risklar bilan bog'liq bo'lgan, yangi faoliyat sohalarda yangi aksiyalar chiqarish, deb talqin qilgan.

O'zbekistonlik olimlar O.M. Abdullayev, A.A. Fattaxov, K.Axmedovlar birgalikda yozgan "Raqamli Iqtisodiyot" nomli ilmiy kitobida venchurli kapitalni firmaning innovatsion faoliyatini tijorat asosida moliyalashtirishning manbalaridan biri sifatida qarashgan.

Biz esa ushbu tadqiqotlardan farqli ravishda venchurli moliyalashtirishning kelib chiqish tarixi va uni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalarini tadqiq etdik.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologiya bu metodlar majmuasini o'rganish, tahlil va tadqiq etish orqali amalga oshirilishini e'tirof etgan holda, ushbu maqolada venchur kapitali tushunchasini va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilish, qiyoslash, induktsiya, deduktsiya, analiz, sintez va kuzatuv kabi metodlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sxemasini ishlab chiqishning biri hisoblangan venchurli moliyalashtirish haqidagi tushunchalar XX asrning o'talarida paydo bo'la boshladi. Venchur moliyalashtirishdagi "Venchur" atamasi inglizcha venture so'zidan olingan bo'lib, "riskli korxona yoki tashabbus" ma'ninosini beradi. Venchur kapitalining ilk namoyondalaridan biri esa Garvard biznes maktabi professori Jorj Doriot "venchur kapitalining otasi" deb hisoblanadi. U 1946-yilda "Amerika tadqiqot va rivojlantirish korporatsiya" sini tashkil etdi va ikkinchi jahon urushi davrida ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirgan kompaniyalarga sarmoya kiritish uchun 3,58 million dollar mablag' yig'di. Korporatsiyaning birinchi sarmoyasi saraton kasalligini davalash uchun rentgen texnologiyasidan foydalanishni maqsad qilgan kompaniyaga tegishli edi. 1960 va 1970-yillarda venchur kapital firmalari o'zlarining investitsiya faoliyatini birinchi navbatda kompaniyalarni ochish va kengaytirishga qaratdilar. Ko'pincha, bu kompaniyalar elektron, tibbiy yoki ma'lumotlarni qayta ishslash texnologiyalaridagi yutuqlardan foydalanganlar. Natijada venchur kapital texnologik korxonalarini moliyalashtirish bilan deyarli sinonimga aylandi. Amerikada venchur kapitalning o'sishining asosiy omil yangi normativ qonun va hujjalarning yaratilishi va eskilariga esa ba'zi o'zgartirishlar kiritilishi bo'lgan va ular quyidagilardir:

- Kichik biznes investitsiyalari to'g'risidagi qonun (SBIC) qabul qilindi va unga ko'ra investorlarga soliq imtiyozlari berildi (1958);

- Daromadlar to'g'risidagi qonunga kapital daromad solig'i ni 49% dan 28% gacha kamaytirish uchun o'zgartirish kiritildi (1978);

- Xodimlarning pensiya daromadlarini ta'minlash to'g'risidagi qonunga (ERISA) kiritilgan o'zgartirish pensiya jamg'armalariga o'z aktivlarining 10 foizigacha kichik yoki yangi biznesga investitsiya qilish imkonini berdi (1979);

- 1981-yilda kapital daromad solig'i 20% ga tushirildi.

<sup>2</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/venchur-kapitali-iqtisodiyotni-innovasion-rivojlantirish-omili-sifatida>.



Ushbu o'zgarishlar vechur kapitalning o'sishini katalizladi va 1980-yillarda vechur kapitalining bum davriga aylandi, moliyalashtirish darajasi 1987-yilda esa 4,9 milliard dollarga etdi.<sup>3</sup>

Vechur kapital rivojlanishiga imkoniyat yaratilgan sari unga bog'liq bilim, tajriba va ko'nikmalar, shu asosida vechur kapital turlari, funksiyalari va moliyalashtirish usullari shakllandi.


Biz quyida Vechur kapitalining turlarini ko'rib chiqdik.

– Pre-Seed: Bu ta'sischilar g'oyani aniq biznes-rejaga aylantirishga harakat qilganda, biznesni rivojlantirishning eng dastlabki bosqichidir. Ular erta moliyalashtirish va murabbiylikni ta'minlash uchun biznes akselektoriga yozilishlari mumkin.

– Urug'larni moliyalashtirish: Bu yangi biznes o'zining birinchi mahsulotini chiqarishga intiladigan nuqta. Hali daromad oqimlari mavjud emasligi sababli, kompaniya barcha operatsiyalarini moliyalashtirish uchun VClarga muhtoj bo'ladi.

– Dastlabki bosqicha moliyalashtirish: Biznes mahsulot ishlab chiqargandan so'ng, o'z-o'zini moliyalashirishdan oldin ishlab chiqarish va sotishni oshirish uchun qoshimcha kapital kerak bo'ladi. Keyin biznesga bir yoki bir nechta moliyalashtirish bosqichi kerak bo'ladi, ular odatda bosqichma-bosqich A, B seriyalari va boshqalar sifatida belgilanadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida, vechur kapitalining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin, 1-rasmga qarang:



1-rasm. Vechur kapitalining asosiy funksiyalari<sup>4</sup>.

Rasmda keltirilgan Vechur kapitalining asosiy funksiyalaridan biz uning innovatsion va investitsion funksiyalarini iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qarashimiz mumkin.

Innovatsion funksiyasi. Vechur kapitali iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyalashuvi omili sifatida namoyon bo'ladi, innovatsion va ish faolligini jadallashtirishga yordam beradi, shuningdek innovatsion transformatsiyalashuv orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Investitsion funksiyasi. Vechur kapitali yuqori texnologiyali yangi innovatsion kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan. Vechur kapitali yuqori riskli investitsiyalar shakli sifatida bunday kompaniyalarning faol rivojlanishi, o'sishi va shakllanishiga yordam beradi. Vechur investitsiyaning pirovard maqsadi loyiha muvaffaqiyatli amalga oshgan taqdirda foyda olish hisoblanadi.

Vechur kapitalining asosiy hususiyatlari:

- Risklilik;
- Innovatsion loyihalarga yo'nalganlik;
- Uzoq muddatlilik
- Moliyalashtirishning bo'linganligi
- Kutiladigan foydaning yuqori normasi.

Vechur kapitali tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi bu - risk hisoblanadi. Risk vechur mablag'lardan kutiladigan daromad bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, vechur kapitalisti innovatsion loyihani moliyalashtirayotganda o'ziga qancha ko'p riskni olsa, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi natijasida shuncha ko'p daromad olishni kutadi.

Vechurli moliyalashtirish bir nechta bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin, tadqiqotimizni uning bosqichlari bilan davom ettiramiz va vechurli moliyalashtirishning asosiy uchta bosqichini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

#### 1-bosqich.

Biznes-rejani taqdim etish: vechur kapitalni qidirayotgan har qanday biznes vechur kapital firmasi yoki farishta investoriga biznes-rejani taqdim etishi kerak. Firma yoki investor kompaniyaning biznes modeli, mahsulotlari, boshqaruvi va faoliyat tarixini chuqur o'rganishni o'z ichiga olgan tegishli tekshiruvni amalga oshiradi.

3 <https://www.investopedia.com/terms/v/venturecapital.asp>

4 Muallif ishlanmasi


**2-bosqich.**

Investitsion garov: Tegishli tekshirish tugallangandan so'ng, firma yoki investor kompaniyadagi o'z kapitali evaziga kapital qo'yishni garovga qo'yadi. Ushbu mablag'lар bir vaqtning o'zida berilishi mumkin, lekin odatda kapital har choraklarda taqdim etiladi. Keyin firma yoki investor moliyalashtirilgan kompaniyada faol rol o'ynaydi, qo'shimcha mablag'larni chiqarishdan oldin uning rivojlanishini maslahat beradi va nazorat qiladi.

**3-bosqich.**

Chiqish: Investor bir muncha vaqt o'tgach, odatda dastlabki investitsiyadan 4-6 yil o'tgach, qo'shilish, sotib olish yoki birlamchi ommaviy taklif (IPO), SPO boshlash orqali kompaniyani tark etadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz dunyo miqyosida vechurli moliyalashtirish dinamikasi turli yillarda turlicha bo'lganini ko'rsatmoqda, agar biz so'nggi besh yildagi ma'lumotlarni taxlil qilsak, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin (2-rasmga qarang).

**2-rasm<sup>5</sup>.**

Ushbu rasmda vechurli kapital dunyo miqyosida so'nggi besh yilning dastlabki uch yilida 292 mlrddan (2019), 321 mlrdga (2020), 621 mlrd (2021) AQSh dollariga oshganligini kuzatsak, 2022-yilga kelib 462 mlrd va 2023-yilda 285 mlrd dollarga pasayish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, global vechur kapitali 2021-yilda shu o'tgan besh yillik ichida eng yuqori natijani ko'rsatishiga pandemiya davrida ko'plab avtomatlashtirish va sog'liqni saqlashga doir yangi loyihalarga sarmoya kiritilganligi bo'lsa, keying yillarda esa sarmoya kiritish ko'rsatkichining pasayishi 2022-yilda global retrosessiya boshlanishi bilan bog'liqidir.

Shunga qaramasdan, yuqorida keltirilgan va yana boshqa ba'zi omillarga ko'ra ham o'sish, ba'zan esa pasayish tendensiyalarini ko'rsatuvchi vechur kapitali orqali ilg'or startaplarga investitsiyalar kiritilib, butun dunyoda muvaffaqiyatga va mashhurlikka erishayotgan yirik va raqobatdosh kompaniyalar vujudga kelmoqda, ularga misol tariqasida Google, Apple, Amazon, Facebook, Uber, Spotify, Tesla, SpaceX, Peloton kabi kompaniyalarni aytib o'tshimiz mumkin.

Biz tadqiqotlarimizni mamlakatimizdagi vechurli moliyalashtirishning bugungi kundagi holatini o'rganish bilan davom ettiradigan bo'lsak, aytishimiz mumkinki, mamlakatimizning iqtisodiyotiga ham vechurli moliyalashtirish asta-sekin kirib kelmoqda. Lekin dastlab, bir nechta sabablarga ko'ra mamlakatimizda institutsional investorlar yo'q edi, ularni uch qismga bo'lish mumkin.

Birinchi o'rinda, bozor. Aslida, u yo'q edi, chunki startaplarga pul jalb qilish madaniyati shakllanmagan edi; ikkinchidan, qonunchilik. Bozorda qiziqarli startap paydo bo'lgan va unga sarmoya kiritishga tayyor kompaniyalar bo'lsa ham, buni qilish muammoli va imkon yo'q edi. Qonunchilik bazasida vechur investitsiyalar bo'yicha tushuncha mavjud emas edi va bir kompaniya boshqasiga investitsiya kiritishining o'zi hech qanday tarzda tartibga solinmas edi;

Uchinchi sabab esa, investitsiya muhiti. Investitsiya muhiti yaxshi emasligi, shu tufayli xorijiy investorlar O'zbekistonga tashrif buyurmagan.

2017-yilda O'zbekistonda valyutani liberallashtirish amalga oshirilish mamlakat xalqaro biznes xaritalarida yana paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijiy tadbirkorlar, kompaniyalar va pullar mamlakatga kirib kelishdi, chunki sarmoya kiritish va foyda olish yanada uklarni jalb qildi. Birinchi qadamlardan biri, startaplarni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan "Mirzo Ulugbek Innovations Center"ning tashkil etilishi bo'ldi. Keyinchalik bu ish "IT Park" tomonidan davom ettirildi va kengaytirildi.

<sup>5</sup> <https://www.statista.com/statistics/1422267/vc-investment-worldwide>. Manbasi asosida, muallif tomonidan qilingan



2018-yilda IT kompaniyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tartibga soluvchi prezident farmoni chiqarilgandan so'ng amalga oshirilgan qonunchilik bazasini yaratish qolgan edi. Shundan so'ng xorijiy va mahalliy fondlar paydo bo'la boshladi, akseleratorlar ochildi, birinchi bitimlar tuzildi, ammo asosiy muvaffaqiyatga bir necha yil o'tgach erishildi. 2023-yilga kelib esa, O'zbekistonda venchur fondlarining soni o'nta ni tashkil etdi hamda ushbu muvafqaqqiyat bilan faoliyat ko'rsatayotgan venchur fondlari tarkibiga Semurg Ventures; Alterate; Uzcard Ventures; UzVC; RB ASIA; YELLOWROCKETS.VC; Sturgeon Capital; Fort Ross Ventures; Aloqa Ventures; MOST Ventures fondlari kiradi.

Bular, asosan, xorijda joylashgan xususiy kompaniyalar va davlat tashkilotlarining loyihalari bo'lib, ulardan UzVC, RB ASIA va Semurg Ventures milliy venchur fondlari hisoblanadi. Ushbu o'nta venchur fondlari orqali "IMAN", "MyTaxi", Jett, ArzonApteka, Sello, Allgood, Multicard, Ox Resto, Sug'urta Bozor, Yoto, Multibank, Pro Tok kabi startaplar moliyalashtirildi hamda "IT Park", "Aloqabank" va "Aloqaventures" korporativ akselerator ishga tushirildi. Bu IT-tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi, yangi xizmatlar va mahsulotlarni sinovdan o'tkazish uchun platforma hisoblanadi.<sup>6</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borgan tadqiqotlarimiz asosida xulosa qilishimiz mumkinki, Venchurli kapital bizning fikrimizcha bu - korxonalar va firmalar (start-yltar) bozorida yangi, o'sib borayotgan yoki kurashadigan va shuning uchun yuqori yoki nisbatan yuqori darajada risk bilan bog'lik bo'lgan moliyaviy mablag'larni jaib kilish uchun mo'ljallangan investorlar kapitali bo'lib, yuqori daromadlar kutgan holda qimmatli qog'ozlarga yoki biznesga uzoq muddatli investitsiyalardir. Venchurli kapital odatda innovatsion kompaniyalar bilan bog'liq bo'ladi.

Venchur kapitali uch xil ko'rishga (Pre-Seed, Urug'larni moliyalashtirish, Dastlabki bosqichda moliyalashtirish) va bir necha funfsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning innovatsion va investitsion funksiyalarini iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qarashimiz mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga venchur kapital fondlar kirib kelmoqda va iqtisodiy rivojlanishlar, ijtimoiy hayot yuksalishi uchun hizmat qiladigan ko'plab IT sohasiga oid startaplar moliyalashtirilmoxda.

Venchur investitsiyalari kapital bozorining muhim qismidir, chunki u yuqori xavf darajasiga ega startaplarni moliyalashtirish imkonini beradi. Shu sababli mamlakatimizda venchur moliyalashtirishni takomillashtirishda, bizning fikrimizcha bir necha iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga olgan quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Qonuniy normativ hujjatlarni takomillashtirish orqali, murakkab qoidalar va uzoq ma'muriy protseduralarni qisqartirish hamda venchur biznesini boshlash va boshqarish bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish;

2. Venchur korxonalar duch keladigan asosiy muammolardan biri hisoblanadigan yaxshi rivojlanmagan ekotizimni yaxshilash va qo'llab - quvvatlash infratuzilmasini shakllantirish.

3. Biznes farishta investorlarini jaib qilish hamda ular bilan birlgilikda bilim va ko'nikmalarni oshirish maqsadida ko'plab uchrashuvlar, memorandumlar va ilmiy tashkilotlar tashkil etish;

4. O'zbekistonda milliy venchur fondlarining sonini ko'paytirish maxsus dasturlarini ishlab chiqish va ular uchun chora-tadbir va imkoniyatlar yaratish;

5. Investorlar tomonidan eng katta qiziqish uyg'oyadigan fintex, logistika texnologiyalari (LogTech) va biznesni boshqarish sohalaridan tashqari sog'liqni saqlash va ta'limni rivojlantirish sohalariga kapital jaib qilish uchun ham yangi startap loyihalarni ishlab chiqishni rag'batlantirish.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

- "Raqamli iqtisodiyot" O.M. Abdullayev, A.A. Fattaxov, K.Axmedov, 625-626 betlar.
- G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2020. 372 b.
- Tapscott, D., The Digital Economy: Promise and Peril In The Age of Networked Intelligence, McGrawHill, 1995. – 342p.
- Milliy iqtisodiyotda axborot tizimlar va texnologiyalar. O'quv qo'llanma/Mualliflar: B.Shafarov, U.X.Narzullayev, N.R.Zaynalov, G'.M.Porsaev; – Samarqand: SamDU nashri, 2019, 272 b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.11.2018-yildagi "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5583-sonli Farmoni. Lex.uz
- <https://www.spot.uz>
- <https://cyberleninka.ru>
- <https://www.investopedia.com>
- <https://www.spot.uz/oz/2023/05/17/venture-in-uzb>
- <https://nationaluzvc.uz/uz/-/5/>

6 <https://www.spot.uz/oz/2023/05/17/venture-in-uzb>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

